



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRINING BUYRUG‘I

2025-yil “27” yanvar

17-son

(Ichb)

Toshkent viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2024-yil 30-dekabrdagi 914-son qarori ijrosini ta’minlash
chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 914-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 914-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin;

2. Quyidagilar:

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish ishlarini tashkil etish bo‘yicha respublika ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o‘rganish va uning natijasiga ko‘ra xulosani shakllantirish bo‘yicha hududiy ishchi guruhi namunaviy tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika va hududiy ishchi guruhlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o‘rganish va xulosalarni shakllantirish ishlarini tashkil etish va o‘tkazish;

yerdan foydalanuvchilar tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlarining almashlab ekish va yaylovlar almashinishi rejalarini ishlab chiqilishini hamda tasdiqlanishini tashkil etish;

har yili 10-fevralga qadar yerdan foydalanuvchilar kesimida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan (shu jumladan, yaylovlardan) oqilona foydalanish holatini o‘rganish bo‘yicha kalendar rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash hamda vazirlikning “www.gov.uz/agro” rasmiy veb-saytiga joylashtirish;

har bir yerdan foydalanuvchi kesimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o'rganish hamda uning natijasiga ko'ra xulosani qabul qilish bo'yicha dalolatnomani rasmiylashtirish va "E-ijara" axborot tizimiga kiritish hamda vazirlikning www.gov.uz/agro rasmiy saytiga joylashtirish.

4. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (I.Ergashev) balansidagi yaylovlardan foydalanishda ijarachilar tomonidan yaylovlardan oqilona foydalanish tartibida belgilangan talablarga to'liq rioya qilinishini, shu jumladan yaylovlar almashinishi rejasiga muvofiq yaylovlardan foydalanishga hamda yaylovlarda chorva mollarini o'tlatishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish me'yorini ta'minlash bo'yicha shaxsiy mas'uliyat yuklatilsin.

5. Agrar sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va raqamlashtirish departamenti (I.Ikramov), "Agrosanoatni raqamlashtirish markazi" MChJ (O'.Maxmudov) uch oy muddatda "E-ijara" axborot tizimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini baholash va uning natijasi bo'yicha xulosani shakllantirishning elektron tizimini yaratsin.

6. Vazir o'rinbosarlari (Q.Yuldashev, J.Abduzuxurov), Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi (O.Soatov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri va viloyatlar (Toshkent shahar) Qishloq xo'jaligi boshqarmalari boshliqlari, tumanlar (Quvasoy shahar) tuman Qishloq xo'jaligi bo'limlari boshliqlari bilan birgalikda mazkur buyruq va chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va samarali tashkil etish bo'yicha barcha zaruriy choralarni ko'rsin.

7. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari Q.Yuldashev zimmasiga yuklansin.

Vazir



I. Abduraxmonov

Qishloq xo'jaligi vazirining
2025-yil "27"-yanvardagi 17 -son buyrug'iga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan
yerlardan oqilona foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 30-dekabrda
914-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 914-son qarori				
1.	2. Belgilansinki: qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanilganligi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining yer tuzish va yerdan foydalanish bo'yicha xodimlari tomonidan aniqlanadi; qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan yerlarni almashlab ekish rejasiga hamda yaylovlar almashinishi rejasiga muvofiq yerdan foydalanuvchilar tomonidan oqilona foydalaniladi; tuman (Quvasoy shahar) hokimliklariga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi	1. Hududlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanilganligini aniqlash ishlarini tashkil etish. 2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanishni yerlarni almashlab ekish rejasiga hamda yaylovlar almashinishi rejasiga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash. 3. Tumanlar (Quvasoy shahar) Qishloq xo'jaligi bo'limlari tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibiga rioya qilmagan hamda yerning normativ qiymatidan kelib chiqqan holda, yer uchastkasining ijara muddatiga hisoblangan qo'shimcha to'lovlarni to'lamagan hollarda sudga to'g'ridan-to'g'ri da'vo arizasini kiritish uchun tuman	2025-yil 30-martdan boshlab doimiy ravishda	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), "O'zdavyerloyiha" DILI (R.Turayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	vazirligining tuman (Quvasoy shahar) bo'limlari xulosasiga asosan yerdan foydalanuvchilarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibiga rioya qilmaganligi hamda yerning normativ qiymatidan kelib chiqqan holda, yer uchastkasining ijara muddatiga hisoblangan qo'shimcha to'lovlarni to'lamaganligi uchun ularning yerga bo'lgan ijara huquqini bekor qilish yuzasidan sudga to'g'ridan-to'g'ri da'vo arizasini kiritish huquqi beriladi.	hokimliklariga xulosa berish ishlarini muvofiqlashtirish.		
2.	3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda: “E-ijara” axborot tizimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini baholash va uning natijasi bo'yicha xulosani shakllantirishning elektron tizimini yaratsin; ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanuvchilar o'rtasida keng tushuntirilishini ta'minlasin.	1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamkorligida “E-ijara” axborot tizimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini baholash va uning natijasi bo'yicha xulosani shakllantirishning elektron tizimini yaratish. 2. Grafik asosida mazkur qaror mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchilar ishtirokida seminarlar tashkil etish.	2025-yil 30-mart Grafikda belgilangan muddatlarda	Agro ma'lumotlar bazasini boshqarish va tahlili, tarmoqlarni raqamli integratsiyalash boshqarmasi (B.Raximov), “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” MChJ (O'.Maxmudov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to'g'risida nizom				
3.	5. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish quyidagilar mezonlar bo'yicha baholanadi: tuproq unumdorligini saqlash va oshirish (haydalma qatlamida umumiy gumus,	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanishni nizomda belgilangan talablar asosida amalga oshirilishini tashkil etish. 2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va	2025-yil 30-martdan boshlab doimiy ravishda	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), “O'zdavyerloyiha” DILI (R.Turayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliyning maqbul darajasini ta'minlash); asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini belgilangan darajada saqlash va oshirish; suvdan foydalanish manbalarini hisobga olgan holda almashlab ekish; yaylovlar almashinishini hisobga olgan holda yaylovlardan foydalanish; tuproqning unumdorligi va meliorativ holatini saqlash va oshirish; chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yaylovlardagi maqbul (optimal) foydalanish me'yorini ta'minlash; yerlarning xo'jalik aylanmasidan (foydalanishdan) chiqib ketishining oldini olish, yerlarni begona o'tlar va butasimon daraxtlar qoplashiga hamda ularning maishiy va ishlab chiqarish chiqindilari bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik; yerga ishlov berishda qishloq xo'jaligi ekinlarini ang'iz qoldiqlari va ikkilamchi mahsulotlarni yoqishga yo'l qo'ymaslik; dala chetlariga, bog'lar va tokzorlarning qator oralariga, shu jumladan, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarga maqbul ekinlarni ekib daromad olish (sug'orish suvlari bilan ta'minlangan yerlarda); ichki sug'orish tarmoqlari va zovurlarni o'z vaqtida tozalash.	Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalaridagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanishni aniqlashga mas'ul xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish choralarini ko'rish. 3. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tizimli monitoring tadbirlarini amalga oshirish.		Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Mazkur band talablari bajarilmagan holatlarda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan va yaylovlardan oqilona foydalanilmagan hisoblanadi.			
4.	7. Xo'jalik ichida yer tuzish loyihasi yerdan foydalanuvchilarning murojaatiga asosan "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti va uning hududiy bo'linmalari tomonidan xo'jalik shartnomalari asosida ishlab chiqiladi hamda tuman (Quvasoy shahar) hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.	1. Yerdan foydalanuvchilarning murojaatiga asosan shartnoma asosida xo'jalik ichida yer tuzish loyihasini ishlab chiqish. 2. Yer tuzish loyihasini tuman (Quvasoy shahar) hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanishini tashkil etish.	Belgilangan muddatlarda	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), "O'zdavyerloyiha" DILI (R.Turayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
5.	8. Yerdan foydalanuvchilar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda umumiy foydalanish uchun chop etilgan ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy asoslangan tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan almashlab ekish rejasiga muvofiq almashlab ekishga rioya qiladi. Yerdan foydalanuvchilar yaylovlardan foydalanishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish me'yoring 20 foizidan kam bo'lmagan miqdordagi qishloq xo'jaligi hayvonlarining mavjudligini va uning belgilangan me'yordan oshib ketmasligini ta'minlaydi.	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda umumiy foydalanish uchun chop etilgan ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy asoslangan tavsiyalari asosida almashlab ekish rejasini ishlab chiqish. 2. Yerdan foydalanuvchilar tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda tasdiqlangan almashlab ekish rejassiga rioya qilinishini ta'minlash. 3. Yerdan foydalanuvchilar tomonidan chorva mollarining mavjud yaylov yerlariga muvofiq bo'lishini hamda belgilangan me'yordan oshib ketmasligini ta'minlash.	2025-yil 30-martdan boshlab doimiy ravishda	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
6.	9. Xo'jalikning ixtisoslashuvi va yerni ijaraga olish shartnomasiga muvofiq yetishtiriladigan ekinlarning rotatsiyasi bo'yicha tanlangan almashlab ekish tizimiga bog'liq holda qishloq xo'jaligi ekinlarining to'liq vegetatsiyaga muvofiq davrni o'z ichiga olgan almashlab ekish rejasi yerdan foydalanuvchilar tomonidan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limi tomonidan tasdiqlanadi va bir nusxasi ushbu tashkilotda saqlanadi.	1. Yerdan foydalanuvchilar tomonidan xo'jalikning ixtisoslashuvi va yer ijarasiga shartnomasiga muvofiq yetishtiriladigan ekinlarning rotatsiyasi bo'yicha tanlangan almashlab ekish tizimiga bog'liq holda qishloq xo'jaligi ekinlarining to'liq vegetatsiyaga muvofiq davrni o'z ichiga olgan almashlab ekish rejasi ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlash. 2. Qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va ekish ishlarini almashlab ekish rejasiga muvofiq amalga oshirilishini tashkil etish.	2025-yil 30 martdan boshlab doimiy ravishda	Asosiy ekinlar dehqonchiligi va agrotexologiyalarni rivojlantirish departamenti (A.Ergashev), Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
7.	10. Tuproq unumdorligining quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha pasayishiga yo'l qo'yilmaydi: sug'oriladigan tuproqlarning unumdor qatlamida (0 — 30 sm) umumiy gumus (>0,8%) miqdorini, harakatchan fosfor (>30 mg/kg) va almashinuvchan kaliyning (>200 mg/kg) tuproqdagi miqdorlarini kam ta'minlangan darajadan tushirmaslik; ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq tuproqning gumus va oziqa elementlari bilan ta'minlanganligining kam ko'rsatkichlariga ega bo'lgan yerlarni kengaytirmaslik; qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan talablarga muvofiq yerlarni maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyasidan yuqori darajada mineral o'g'itlar va pestitsidlar bilan ifloslantirmaslik;	1. Hududlarning tuproq iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga qaratilgan tadbirlarni bajarish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan tavsiyanomalarni amaliyotda foydalanish uchun yerdan foydalanuvchilarga yetkazish. 3. Tuproq tahlillari o'tkazilgan hududlarda tuproq unumdorligining oshirilganligini tahlil qilish.	2025-yil avgust-sentyabr 2026-yildan boshlab har yili bir marotaba	Asosiy ekinlar dehqonchiligi va agrotexologiyalarni rivojlantirish departamenti (A.Ergashev), Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi (O.Soatov), Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti (Sh.Bobomurodov), Respublika agrokimyoviy tahlil markazi (V.Muxiddinov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	eroziya natijasida yuqori gumus qatlam qalinligining 5 santimetrda ortiq pasayishi; tuproqning 30 santimetrgacha bo'lgan qatlamida zaharli tuzlar umumiy miqdorining ko'payishiga (xlor 0,01 foizdan, sulfat 0,03-0,04 foizdan ortiq, tuproqdagi sho'rlanish darajasini umumiy maydonning 5 foizdan oshirmaslik) yo'l qo'ymaslik; qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun berilgan yerlarni qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqarib yubormaslik.			Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
8.	12. Yerdan foydalanuvchilar chorvachilik maqsadlari uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda quyidagi miqdorlarda qishloq xo'jaligi hayvonlarining mavjudligini ta'minlaydi: eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish me'yorining 20 foizidan pasaytirmaslik; eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish me'yoridan oshirmaslik.	1. Yerdan foydalanuvchilar tomonidan chorvachilik maqsadlari uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda chorva mollarini eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish me'yorining 20 foizidan pasaytirmaslik hamda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish me'yoridan oshirmasligini ta'minlash. 2. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida monitoring tadbirlarini amalga oshirish.	2025-yil 30-martdan boshlab doimiy ravishda	Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (I.Ergashev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
9.	13. Yaylovlardan oqilona foydalanish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: yaylovlar almashinishi va suvdan foydalanish manbalarini hisobga olgan holda yaylovlardan foydalanish;	1. Yaylov yerlaridan foydalanuvchilar tomonidan yaylovlardan oqilona foydalanish tadbirlarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirishi hamda	2025-yil 30-martdan boshlab doimiy ravishda	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi 689-son qarori bilan tasdiqlangan Yaylovlarda chorva mollarini o'tlatishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta'minlash va yuritish tartibi to'g'risida nizomga muvofiq umumiy yaylov maydoni bo'yicha aniqlangan eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish me'yorini ta'minlash; yaylovlar almashinishi rejasiga muvofiq yaylovlardan foydalanish; yaylovlarning qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, yerlarni begona o'tlar va butasimon daraxtlar qoplashiga hamda maishiy va ishlab chiqarish chiqindilari bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik.	belgilangan talablarga to'liq rioya etilishini tashkil qilish. 2. Yaylov yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida grafik asosida hududlarga chiqib, monitoring tadbirlarini amalga oshirish.	Har yili ikki marotaba	boshqarmasi (M.Sayfiyev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (I.Ergashev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
10.	14. Yerdan foydalanuvchilar yaylovlardan foydalanishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish normasidan oshmagan miqdorda qishloq xo'jaligi hayvonlari boqilishini ta'minlaydi.	1. Yerdan foydalanuvchilar yaylovlardan foydalanishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish normasidan oshmagan miqdorda chorva mollari boqish tashkil etilishini ta'minlash. 2. Belgilangan talablarga rioya etmagan yerdan foydalanuvchilar bo'yicha takliflar kiritish.	2025-yil 30-martdan boshlab doimiy ravishda	Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (I.Ergashev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
11.	15. Eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish normasini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi hayvonlari bosh soni va yerdan foydalanuvchilar foydalanishida bo'lgan yaylovlarning oziqa mahsuldorligi to'g'risidagi axborotlardan foydalaniladi. Yerdan foydalanuvchilarga tegishli bo'lgan qishloq xo'jaligi hayvonlarining bosh soni miqdorini hisoblash uchun qishloq xo'jaligi hayvonlarini ro'yxatga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasidan olingan ma'lumotlar hamda yerlarni masofadan zondlash o'tkazilgan vaqtdagi axborotlar qabul qilinadi. Yerdan foydalanuvchilarga tegishli bo'lgan qishloq xo'jaligi hayvonlarining bosh soni to'g'risida qishloq xo'jaligi hayvonlarini ro'yxatga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasida ma'lumotlar bo'lmagan hollarda, chorva mollari xatlovdan o'tkazish va monitoring qilish asosida aniq ma'lumotlarni olishga ruxsat etiladi.	1. Chorva mollari bosh soni va foydalanishda bo'lgan yaylov yerlarining mahsuldorligi to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish va yerdan foydalanuvchilarga yetkazish. 2. Chorva mollari bosh soni to'g'risidagi axborotni shakllantirishda chorva mollari ro'yxatga olishdagi hamda yerlarni masofadan zondlash o'tkazilgan vaqtdagi ma'lumotlar qabul qilish.	2025-yil 30-martdan boshlab mavsum davomida	Qishloq xo'jaligi boshqarmalari Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (I.Ergashev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
12.	16. Yaylovlardan oqilona foydalanish tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limi tomonidan tasdiqlangan Yaylovlarni boshqarish va undan foydalanish rejasi bilan tartibga solinadi.	1. Tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limi tomonidan "Yaylovlarni boshqarish va undan foydalanish rejasi" tasdiqlanishini tashkil etish. 2. Yaylovlardan oqilona foydalanishda tadbirlarining "Yaylovlarni boshqarish va undan foydalanish rejasi"ga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash.	2025-yil 30-martdan boshlab mavsum davomida	Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
				(I.Ergashev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
13.	17. Yaylovlarning oziqa mahsuldorligi pasayishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: yaylovlarni qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish (o'tlatish) bo'yicha alohida uchastkalarga ajratish (bo'lish); yaylovlarning joylashishi va vaqt (yil, mavsum) bo'yicha yil mavsumi davomida almashinishi; qishloq xo'jaligi hayvonlari kiritilmaydigan va boqilmaydigan (o'tlatilmaydigan) hamda har yili yaylovlar almashinishidan qoldiriladigan yer uchastkasi.	1. Yaylovlarning oziqa mahsuldorligi pasayishining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish. 2. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida monitoring yuritilishini tashkil etish.	2025-yil 30-martdan boshlab mavsum davomida	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov), Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (I.Ergashev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
14.	18. Hududlarning tabiiy va xo'jalik sharoitiga bog'liq holda yaylovlarda qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish (o'tlatish)ning quyidagi tizimlaridan foydalaniladi: ko'chib yurish tartibida (yoyib) boqiladigan (o'tlatiladigan) yaylovlar;	1. Hududlarning tabiiy va xo'jalik sharoitiga bog'liq holda yaylovlarda qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish (o'tlatish)ning belgilangan tizimlaridan foydalanish choralari ko'rish.	2025-yil 30-martdan boshlab mavsum davomida	Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (B.Norqobilov),

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	yil davomida boqiladigan (o'tlatiladigan) yaylovlar. Qishloq xo'jaligi hayvonlari ko'chib yurish tartibida (yoyib) boqiladigan (o'tlatiladigan) mintaqalarga bog'liq holda bahor, yoz va kuz oylarida boqiladi hamda qish oylarida molxona sharoitida oziqlantiriladi. Yerdan foydalanuvchilar hududning tabiiy-iqlim sharoitiga bog'liq holda yaylovlardan yil davomida foydalanadi. Yerdan foydalanuvchilar noqulay iqlim sharoitida chorvachilik binolaridan foydalanadi va dag'al oziqa bazasining yetarli darajadagi zaxirasini yaratadi.	2. Yaylov yerlarida chorva mollarini o'tlatishda belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash.		Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi (I.Ergashev),
15.	19. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi o'zining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda har yili 10-fevralga qadar yerdan foydalanuvchilar kesimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan (shu jumladan, yaylovlardan) oqilona foydalanish holatini o'rganish bo'yicha kalendar rejalarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligining www.agro.uz rasmiy saytiga joylashtiradi.	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan (shu jumladan, yaylovlardan) oqilona foydalanish holatini o'rganish bo'yicha kalendar rejalarni ishlab chiqish, tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan kalendar rejalarni Qishloq xo'jaligi vazirligining www.gov.uz/agro rasmiy saytiga joylashtirish.	2025-yil 10-fevral	Agro ma'lumotlar bazasini boshqarish va tahlili, tarmoqlarni raqamli integratsiyalash boshqarmasi (B.Raximov), Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi (M.Sayfiyev), Axborot xizmatlari bo'limi (D.Nazirov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
				Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
16.	22. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o'rganish bo'yicha xulosalar Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti, Respublika agrokimyoviy tahlil markazi yoki ularning hududiy (mintaqaviy) bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan tuproq tadqiqotlari natijalariga muvofiq tayyorlanadi.	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o'rganish bo'yicha xulosalarni tuproq tadqiqotlari natijalariga muvofiq tayyorlanishini tashkil etish. 2. Ushbu tadbirlarga Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti, Respublika agrokimyoviy tahlil markazi yoki ularning hududiy (mintaqaviy) bo'linmalarini jalb etish.	2025-yil 30 martdan boshlab doimiy ravishda	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi (O.Soatov), Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti (Sh.Bobomurodov), Respublika agrokimyoviy tahlil markazi (V.Muxiddinov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmalari
17.	23. Yaylovlardan oqilona foydalanish holatini o'rganish bo'yicha xulosalar "O'zdavyerloyiha" instituti yoki uni hududiy bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan geobotanik tadqiqotlar va yaylovlar monitoringi natijalariga muvofiq tayyorlanadi.	1. Yaylovlardan oqilona foydalanish holatini o'rganish bo'yicha xulosalarni geobotanik tadqiqotlar va yaylovlar monitoringi natijalariga muvofiq tayyorlanishini tashkil etish. 2. Ushbu tadbirlarga "O'zdavyerloyiha" instituti va uning hududiy bo'linmalarini jalb etish.	2025-yil 30 martdan boshlab doimiy ravishda	Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi (O.Soatov), Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo'rayev), Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi

T/r	Qaror bandi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
				(M.Sayfiyev), “O‘zdavyerloyiha” DILI (R.Turayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo‘jaligi boshqarmalari
18.	24. Ishchi guruh har bir yerdan foydalanuvchi kesimida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o‘rganish hamda uning natijasiga ko‘ra xulosani qabul qilish bo‘yicha dalolatnomani rasmiylashtiradi va “E-ijara” axborot tizimiga kiritadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining www.agro.uz rasmiy saytiga joylashtiradi.	1. Ishchi guruhlar tomonidan quyidagi tadbirlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini tashkil etish: har bir yerdan foydalanuvchi kesimida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o‘rganish; o‘rganish natijasiga ko‘ra xulosani qabul qilish bo‘yicha dalolatnomani rasmiylashtirish; rasmiylashtirilgan dalolatnomani “E-ijara” axborot tizimiga kiritish. 2. Ma’lumotlarni Qishloq xo‘jaligi vazirligining www.gov.uz/agro rasmiy saytiga joylashtirish.	Kalendar reja asosida Dalolatnoma rasmiylash- tirilishi bilan 3 kun muddatda	Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo‘rayev), Axborot xizmatlari bo‘limi (D.Nazirov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qishloq xo‘jaligi boshqarmalari
19.	25. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o‘rganish hamda uning natijasiga ko‘ra xulosa elektron shaklda tayyorlanadi va avtomatik ravishda tuman (Quvasoy shahar) hokimligining “E-ijara” axborot tizimidagi kabinetiga yuboriladi.	1. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o‘rganish hamda uning natijasiga ko‘ra xulosalarni (elektron shaklda tayyorlanishini) ta’minlash. 2. Xulosalarni tuman (Quvasoy shahar) hokimligining “E-ijara” axborot tizimidagi kabinetiga yuborish.	Xulosa rasmiylash- tirilishi bilan 3 kun muddatda	Agro ma’lumotlar bazasini boshqarish va tahlili, tarmoqlarni raqamli integratsiyalash boshqarmasi (B.Raximov), Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi (A.Jo‘rayev)

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish
ishlarini tashkil etish bo'yicha
RESPUBLIKA ISHCHI GURUHI TARKIBI**

Q.A. Yuldashev	- Vazir o'rinbosari, <i>ishchi guruh rahbari</i>
A.R. Jo'rayev	- Yer resurslarini raqamlashtirish boshqarmasi boshlig'i, <i>ishchi guruh rahbarining o'rinbosari</i>
O.I. Soatov	- Tuproq unumdorligini oshirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i
M.I. Sayfiyev	- Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
B.T. Norqobilov	- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi
I.O. Ergashev	- Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi raisi
R.A. To'raev	- "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy loyihalash instituti bosh direktori
Sh.M. Bobomurodov	- Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti direktori
V.N. Muxiddinov	- Respublika agrokimyoviy tahlil markazi direktori
O'.B. Maxmudov	- "Agrosanoatni raqamlashtirish markazi" MChJ direktori
A.R. Qadirov	- Yer tuzish va yer munosabatlarini tartibga solish bo'limi boshlig'i, <i>ishchi guruh kotibi</i>

Izoh: Respublika ishchi guruhi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Zaruriyatga ko'ra, vazirlikning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlaridan qo'shimcha mutaxassis (xodim)lar jalb qilinadi.

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini
o'rganish va uning natijasiga ko'ra xulosani shakllantirish bo'yicha
HUDUDIY ISHCHI GURUH NAMUNAVIY TARKIBI**

- | | | |
|--------------------------|---|---|
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining hamda viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha o'rinbosari, <i>ishchi guruh rahbari</i> |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Yer tuzish, yerdan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va monitoring sho'basi boshlig'i, <i>ishchi guruh rahbarining o'rinbosari</i> |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Yer resurslarini raqamlashtirish sho'basi boshlig'i, |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish sho'basi boshlig'i |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy loyihalash institutining hududiy bo'linmasi direktori |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining mintaqaviy filiali boshlig'i (<i>hududlar joylashuvidan kelib chiqadi</i>) |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Respublika agrokimyoviy tahlil markazining hududiy bo'linmasi direktori |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy boshqarmasi boshlig'i |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining hududiy boshqarmasi boshlig'i |
| <i>Lavozimi bo'yicha</i> | - | Tuman (Quvasoy shahar) Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, <i>Ishchi guruh kotibi</i> |

Izoh: Respublika ishchi guruhi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Zaruriyatga ko'ra, vazirlikning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlaridan qo'shimcha mutaxassis (xodim)lar jalb qilinadi.